

Talabalar Ijodkorligini Rivojlantirishning Pedagogik Ahamiyati

Yuldasheva S.T

Kafedra Dotsenti, SamDChTI Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi

Najiyeva S. N.

O'qituvchisi, SamDChTI Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi

Annotatsiya. Ushbu maqolda ijodkorlik hayotda insonlarga yuqori marralarga erisha olishida juda katta imkoniyatlar tuxfa etadi. Shaxslardagi ustunlikning bir belgisi uning ongi, ijodkorlik qobiliyatlari haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: Pedagog, ijod, shaxs, o'qituvchi, mahorat, ko'nikma, malaka, bilim, tajriba, tasavvur, intellektual, inson, talaba, salohiyat, individual, qobiliyat.

Talabalar kredit-modul tizimida fan modullarini ketma-ket o'zlashtirib boradilar. Qiziqishlariga asosan talabalar tanlagan fanlaridan kengroq bilim olishga harakat qiladilar. Fanlarni o'zlashtirish natijasida talabalar ta'lim jarayonida yuqori marralarga ham yerisha oladilar. Turli olimpiadalar, konferensiyalarda faol ishtirok etib olingan nazriy bilimlarni ijodkorona amaliyotga tadbiiq etadilar. Bu yutuqlar talabalarda ta'lim olish motivatsiyasini yanda oshiradi.

Ijodkorlik tushunchasi misollar va tariflar bilan keng tushuntirish mumkin. Shuningdek, jonli va jonsiz tabiatning, jamiyat taraqqiyotining madaniy-tarixiy funksiyasi sifatida talqin etiladi. Ilmiy va badiiy elita faoliyatining asosiy sohasi sifatida (bastakor, olim, haykaltarosh va boshqalar) va noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishni talab qiladigan har qanday inson faoliyatining tarkibiy qismi sifatida ham etirof etish mumkin. Ijodkorlikning mohiyati faylasuflar, psixologlar, sotsiologlar, antropologlar, madaniyatshunoslar va pedagoglarning e'tiborini doimo tortadigan eng murakkab muammolardan biridir.

Ilmiy ijod bilan faylasuf olimlar shug'ullansa, badiiy ijod bilan esa rassomlar, yozuvchilar, haykaltaroshlar va san'atkorlar shug'ullanadilar. Demak, ijodni ikkiga bo'lib o'rganish mumkin ekan ya'niy ilmiy va badiiy. Ba'zi kishilarda har ikki ijod rivojlangan bo'lishi mumkin. Ilmiy ijodda tabiat va jamiyat hayotining ob'yektiv qonuniyatlari aks ettiradi. Badiiy ijodda ma'naviy hayot muammolariga san'atkorning sub'yektiv, o'ziga xos qarashlari, his-tuyg'ulari aks etadi. Badiiy ijodda hayotning turfa ranglari hamda voqealari orasidan ibratli va ijtimoiy ahamiyatli bo'lganlari tanlab olinadi va badiiy ijod umumlashtiriladi. Badiiy ijod murakkab jarayon bo'lib, inson faoliyatining idrok etish, baholash, qadrlash singari turlari bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Ijod qilish uchun ijodkor erkin xayol, ozod tafakkur, keng ko'lamli tasavvur, milliy g'urur va yuksak orzularga ega bo'lishi kerak. Badiiy ijod mahsulotining ommaviyligi va ijtimoiy

ahamiyati ana shu bilan belgilanadi. Ijod, ijodning taraqqiy etishida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shartsharoitlari hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ijod, rivojlanish, ijodiy fikrlash kabi soʻzlarni koʻp eshitganmiz. Ayni paytda, ijodni foydali mehnat faoliyati deya olishimiz mumkin. Ijodni kimdir qobiliyatlarning mahsuli deydi. Yana, kimlardir, aksincha, u har bir kishi uchun sifatli va kafolatlar, muvaffaqiyatlarga elituvchi manba deb hisoblaydi. Ijodiy fikrlash, miyaning noyob qobiliyati hisoblanadi, buni anglab undan unimli foydalansak, oʻz mahsulini beradi. Agar muntazam ravishda qobiliyatlarimizni shakllantirib borsak, u rivojlanib oʻz samaradorligini namoyon qiladi. Ijodkor shaxs undan motivatsiya olib yangi-yangi kashfiyotlar yaratadi.

Mustaqil va ijodiy ishlab chiqarishni tashkil etishda talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlash tarzining ijtimoiy-pedagogik zaruriyati va nazariy asoslarini bilish; iqtidorli talabalarni diagnostika qilish, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va oʻquv-uslubiy tomondan taʼminlash yoʻllarini bilish, zarur oʻquv materiali mazmunidan kelib chiqqan holda vositalar va usullarni samarali toʻgʻrilash va uygʻunlashtira olish darkor. Insonda ijod qilish qobiliyati mehnat faoliyati jarayonida vujudga kelgan. Tabiat tomonidan taqdim etilgan materialdan u oʻz ehtiyojlarining xilma-xilligini qondiradigan yangi-yangi narsalarni yaratishga harakat qiladi. Atrofimizdagi olam qonunlari haqidagi bilimlar ortib borgani sari ijodkorlik imkoniyatlari ham ortadi. Ijod - insonning yaratuvchilik qobiliyatiga ega ekanligi bilan eʼtirof etiladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tugʻiladi, keyin taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar oʻtkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, gipotezalar qilinadi. Shunday ekan taʼlim jarayonida talabalaridagi tasavvurni boyita olsak ulardagi ijodkorlik rivojlanishiga ulkan hissa qoʻshgan boʻlamiz.

Shuni hisobga olgan holda darsga qoʻyiladigan umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalangan. Shuning uchun kredit-modul tizimidan foydalanish masalasi, taʼkidlash joizki, texnologiyadan uzilgan va amaliy mashgʻulotlarni jonlantirishga qaratilgan alohida usullar kabi emas, balki ijodkorlik, texnologiya muhim kasb sifatida ahamiyat kasb etadi. Bugungi paytda ijodkorlik ishlab chiqarishning har bir sohasida, fanda, sanʼatda va boshqalardan alohida ajratilgan. Ijodkorlik turlari shaxslarning (ixtirochi, ishlab chiqarish tashkilotchisi, olim, rassom, oʻqituvchi va boshqalar) ijodiy faoliyatning xarakterini belgilaydi. Talabalarda mavjud qobilyat, isteʼdod va ijodkorliklarni faollashtirish, takomillashtirish, amaliyotga tatbiq etish, ularning ijod va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga koʻmaklashish zarur. Ijodkorlik - kishilarning borliqni bilishi va oʻzgartirishga qaratilgan ongli, maqsadli faoliyati hisoblanib, uning natijasida yangi, original, ilgari mavjud boʻlmagan, jamiyatning moddiy va maʼnaviy hayotini yaxshilashga qaratilgan buyumlar va boshqa narsalar yaratiladi.

Ijodda ijodkorning butun bilimi, tajribasi, isteʼdodi namoyon boʻladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tugʻiladi, keyin ijodga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy koʻrib chiqiladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar oʻtkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, yangi gʻoyalar paydo boʻladi, amaliyotda sinab koʻriladi, yangilanadi. Odamlarning ogʻirini yengil qiladigan, jamiyat hayotiga boʻlgan ehtiyojini qondiradigan barcha narsalarni bunyodkorlik mahsuli desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Izlanishlar natijasi turli shakllarda (badiiy asar, matematik formula va b.) yuzaga chiqadi, ijod jamiyat eʼtirof etsagina haqiqiy, toʻliq ijod boʻladi, umuman olganda, ijod fan-texnikani, madaniyatni boyitadi, rivojlantiradi.

Talabalarning ijodkorligi ragʻbatlantirilsa va doʻstona muhit yaratilsagina ijodiy fikrlash odatlarini rivojlantirishi mumkin. Ijodiy muhitda oʻqituvchi va oʻquvchilar bir-biriga nisbatan halol boʻlishni, ularning fikrini hurmat qilishni oʻrganadilar. Muvaffaqiyatsizlikdan qoʻrqadigan, yuqori bahoga haddan tashqari eʼtibor qaratadigan, boshqalardan ajralib qolishdan qoʻrqadigan, tanqid va kamsitishdan qochadigan talabalarda ijodkorlik shakllanmaydi. Xato va tavakkalchilik asosida ijodkorlikga erishish mumkin. Ijodkorlikni odatga aylantirish, talabalarning oʻquv muvaffaqiyati va oʻz-oʻzini nazorat qilishiga bogʻliq. Sogʻlom muhitdagina talabalarda ijodiy fikrlashlari orqali yangi gʻoyalar tugʻiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyuldagi PQ-5188-sonli qarori.
2. Farsaxanova D.R. Talabalarga maʼnaviy axloqiy tarbiya berish texnologiyasi (oʻquv uslubiy qshllanma). Toshkent-2009 yil.
3. Ibragimov X.I., U.A.Yoʻldashev, X.I. Bobomirzaev Pedagogik psixologiya. –Toshkent: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyat 2009 yil.
4. Muslimov N., Usmonboeva M., Mirsolieva M. Innovatsion taʼlim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. UMK. – Toshkent.
5. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., Toʻraev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent 2016 yil.
6. Musurmanova O. Maʼnaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent 1996 yil.
7. Muxamedov .I., Toʻraqulov X.A. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ilmiy nazariy asoslari.Toshkent 2004 yil.
8. Nishonova Z.T., Ergashov P.S. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent 2012 yil.
9. Salaxutdinova M. Ijod psixologiyasi. -Samarqand: SamDU bosmaxonasi 2010 y .- 60 b